

O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY BARQARORLIKKA ERISHISHDA ISTIQBOLLI DRAYVER SOHALARNING O‘RNI

Xolbozorov Muzraf Yusup o‘g‘li

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

“Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti”

kafedrası mustaqil izlanuvchisi

E-mail: muzrofxolbozorov@gmail.com

Annotatsiya

Mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash — bu nafaqat barqaror o‘shish sur’atlariga erishish, balki ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning uzluksiz davom etishini ta’minlaydigan muhim strategik vazifadir. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy barqarorlikka erishishda “drayver” sohalari — ya’ni iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo‘layotgan tarmoqlarning roli, ularning bugungi holati va kelgusidagi rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi. Xususan, sanoat, axborot texnologiyalari, qishloq xo‘jaligi, logistika, energetika va turizm sohalari drayver tarmoqlar sifatida ko‘rib chiqilib, ularning har biri mamlakat iqtisodiyoti uchun yaratayotgan qo‘shilgan qiymat, yangi ish o‘rinlari va eksport salohiyatiga qo‘shayotgan hissasi asosida baholanadi. Maqolada, shuningdek, drayver sohalarning rivojlanishiga turtki beruvchi omillar — xususan, davlat siyosati, investitsion muhit, innovatsion texnologiyalarni joriy etish holati, xorijiy tajribalardan samarali foydalanish imkoniyatlari chuqur tahlil qilinadi. Mavjud statistik ma’lumotlar asosida ushbu tarmoqlarning YaIMdagi ulushi, eksportdagi o‘rni hamda ichki bozor talablarini qondirishdagi roli yoritiladi. Maqola yakunida drayver tarmoqlar orqali iqtisodiy barqarorlikka erishishning prognoz natijalari va ularni amalga oshirish bo‘yicha tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy barqarorlik, drayver sohalari, sanoat, YaIM, qishloq xo‘jaligi, axborot texnologiyalari, logistika sohasi, energetika sektori, turizm salohiyati, investitsiyalar, eksport hajmi, innovatsiyalar, davlat siyosati, iqtisodiy o‘shish, raqamli iqtisodiyot, eksport, import, milliy iqtisodiyot, infratuzilma.

Аннотация

Обеспечение экономической стабильности в стране — важная стратегическая задача, обеспечивающая не только достижение устойчивых темпов роста, но и бесперебойное продолжение социально-экономического развития. В данной статье анализируется роль отраслей, выступающих в качестве “драйверов” — то есть главной движущей силы экономики в достижении экономической стабильности в Республике Узбекистан, их сегодняшнее состояние и перспективы дальнейшего развития. В частности, отрасли промышленности, информационных технологий, сельского хозяйства, логистики, энергетики и туризма рассматриваются как движущие силы и оцениваются на основе добавленной стоимости, которую каждая из них создает для экономики страны, и ее вклада в создание новых рабочих мест, а также экспортного потенциала. В статье также будет проведен углубленный анализ факторов, способствующих развитию движущих сил отраслей, в частности

государственной политики, инвестиционного климата, состояния внедрения инновационных технологий, возможностей эффективного использования зарубежного опыта. На основе имеющихся статистических данных будет освещена доля этих отраслей в ВВП, их роль в экспорте и их роль в удовлетворении потребностей внутреннего рынка. В заключение статьи приводятся прогнозные результаты достижения экономической устойчивости через сети и выдвигаются рекомендации по их реализации.

Ключевые слова: Экономическая стабильность, драйвер отрасли, промышленность, ВВП, сельское хозяйство, информационные технологии, логистика, энергетический сектор, туристический потенциал, инвестиции, объем экспорта, инновации, государственная политика, экономический рост, Цифровая экономика, экспорт, импорт, национальная экономика, инфраструктура.

Abstract

Ensuring economic stability in the country is not only a matter of achieving sustainable growth rates, but also an important strategic task that ensures the continuous continuation of socio-economic development. This article analyzes the role of “driver” sectors in achieving economic stability in the Republic of Uzbekistan — that is, sectors that act as the main driving force of the economy, their current state and future development prospects. In particular, the industry, information technology, agriculture, logistics, energy and tourism sectors are considered as driver sectors, and each of them is evaluated based on the added value and new jobs created for the country’s economy, as well as its contribution to export potential. The article also deeply analyzes the factors that drive the development of driver sectors, in particular, state policy, investment environment, the state of introduction of innovative technologies, and the possibilities of effective use of foreign experience. Based on available statistical data, the share of these sectors in GDP, their role in exports, and their role in meeting the demands of the domestic market are highlighted. The article concludes with the forecast results of achieving economic stability through driver industries and recommendations for their implementation.

Keywords: Economic stability, driver industries, industry, GDP, agriculture, information technologies, logistics, energy sector, tourism potential, investments, export volume, innovations, public policy, economic growth, digital economy, export, import, national economy, infrastructure.

KIRISH

O‘zbekiston iqtisodiy islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan, bozor mexanizmlariga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirish yo‘lida jadal harakat qilayotgan mamlakatlardan biridir. Mustaqillik yillaridan buyon olib borilayotgan iqtisodiy siyosat davlatning asosiy maqsadiga — barqaror va farovon iqtisodiy rivojlanishga erishishga qaratilgan. Bunday barqarorlik esa, eng avvalo, mamlakat ichidagi ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish, resurslardan oqilona foydalanish, yangi texnologiyalarni joriy qilish va eksport salohiyatini oshirish orqali amalga oshadi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, iqtisodiyotda asosiy harakatlantiruvchi kuch — ya'ni drayver sohalarning ahamiyati tobora ortib boradi. Drayver sohalari deganda iqtisodiy o'sishni tezlashtirishga, yangi ish o'rinlarini yaratishga, innovatsion texnologiyalarni joriy etishga va eksport hajmini ko'paytirishga xizmat qiladigan strategik tarmoqlar tushuniladi. Bunday tarmoqlar O'zbekiston sharoitida sanoat, qishloq xo'jaligi, transport-logistika, energetika, axborot texnologiyalari va turizm kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Bu sohalari nafaqat o'zlarining iqtisodiy salohiyati, balki boshqa tarmoqlarni ham rivojlantirishga turtki bo'ladigan ta'siri bilan ajralib turadi. Shu bois, O'zbekistonning iqtisodiy barqarorligiga erishishda aynan shu drayver sohalarning roli yuqori hisoblanadi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar drayver sohalarning rivojlanishiga qaratilgan. Xususan, sanoat ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish, yangi quvvatlarni ishga tushirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha muhim qadamlar tashlangan. Qishloq xo'jaligida suv tejoychi texnologiyalar, klaster tizimi, zamonaviy agrotexnikalar joriy etilib, mahsulot yetishtirish hajmi oshmoqda. Transport va logistika yo'nalishida esa yangi avtomobil va temir yo'llar, xalqaro tranzit koridorlari, multimodal markazlar qurilishi O'zbekistonni mintaqaviy bog'lovchi markazga aylantirish imkonini beradi.

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda mavjud imkoniyatlar bilan birga, ayrim muammolar va cheklovlar ham mavjud. Jumladan, ayrim tarmoqlarda texnologik yangilanish sur'ati past, investitsiyalarni jalb qilishda byurokratik to'siqlar mavjud, kadrlar salohiyati esa har doim zamon talablariga javob bermaydi. Ammo shunga qaramay, hukumat tomonidan bu yo'nalishlarda muhim islohotlar amalga oshirilmoqda, tahlillar asosida istiqbolli yo'nalishlar tanlanmoqda, xorijiy tajribalar o'rganilmoqda. Eng asosiysi, jamiyatda o'zgarishlarga bo'lgan ijobiy kayfiyat va ishonch tobora kuchayib bormoqda.

Iqtisodiy barqarorlik — bu faqat raqamlar bilan o'lchanadigan ko'rsatkich emas, balki aholi turmush darajasining yaxshilanishi, barqaror ish o'rinlari yaratilishi, makroiqtisodiy muvozanatning saqlanishi, iqtisodiy xavfsizlikning ta'minlanishi kabi murakkab tizimlarning uyg'unligidir. Bu esa bevosita drayver sohalarning raqobatbardoshligini oshirish, ularni zamonaviy bosqichga olib chiqish bilan chambarchas bog'liqdir. Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat aynan shu maqsadlarni o'z oldiga qo'yimoqda va bu yo'nalishda qator dasturlar, strategiyalar ishlab chiqilgan.

Yana bir muhim jihat shundaki, bugungi global iqtisodiyotda raqobat kuchli bo'lib, har bir davlat o'zining ustuvor tarmoqlarini aniqlab, ularni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. O'zbekiston ham bu borada chetda qolmayapti. Bunda "O'zbekiston – 2030" strategiyasi, Prezidentimiz tomonidan belgilangan ustuvor yo'nalishlar, milliy va hududiy investitsiya dasturlari aynan iqtisodiyotning drayver sohalariga asoslanmoqda. Bu esa uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka zamin yaratadi. Shuningdek, mahalliy xomashyo bazasiga tayangan holda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tish, ilm-fan bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi

integratsiyani kuchaytirish orqali iqtisodiy modelni yanada mustahkamlash koʻzda tutilgan.

Barcha bu ijobiy oʻzgarishlar mamlakatning iqtisodiy mustahkamligini oshiradi. Ammo iqtisodiy barqarorlikka erishish jarayoni oʻz-oʻzidan kechmaydi. Bu jarayon doimiy monitoring, tahlil, innovatsion yondashuv va qatʼiy siyosiy iroda talab qiladi. Drayver sohalarning istiqboli haqida fikr yuritganda, biz faqat hozirgi holatni emas, balki kelgusi yillarda bu tarmoqlar qanday yoʻnalishda rivojlanishini, qanday imkoniyatlar va tahdidlar mavjudligini ham hisobga olishimiz lozim. Bu esa oʻz navbatida ilmiy yondashuv, strategik rejalashtirish va xalqaro tajribani chuqur oʻrganishni talab qiladi.

Shunday ekan, ushbu maqolada Oʻzbekistonda iqtisodiy barqarorlikka erishish jarayonida asosiy drayver sohalarning bugungi holati, ularning rivojlanish istiqbollari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yoʻllari haqida tahliliy yondashuv asosida fikr yuritiladi. Maqolada amaliy misollar, statistika, mavjud strategiyalar va real tajribalar asosida drayver sohalarning mamlakat iqtisodiyotidagi oʻrni yoritiladi. Shuningdek, Oʻzbekistonning global iqtisodiyotga integratsiyalashuvi, raqobatbardosh sohalarning rivoji, hududlar kesimidagi imkoniyatlar haqida ham fikr yuritiladi. Asosiy maqsad esa — Oʻzbekistonning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligini taʼminlashda drayver sohalarning tutgan oʻrni va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish masalasiga eʼtibor qaratishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy barqarorlikni taʼminlashda drayver sohalarning roli bugungi kunda muhim ilmiy va amaliy masalalardan biridir. Ushbu mavzu yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar iqtisodiy oʻsish va barqarorlikka taʼsir qiluvchi asosiy omillarni yaxshiroq tushunish uchun ilmiy asos yaratadi. Soʻnggi paytlarda oʻtkazilgan tahlillar shuni koʻrsatadiki, drayver tarmoqlari — iqtisodiyotning tez rivojlanayotgan va innovatsion yoʻnalishlari — mamlakatning iqtisodiy tizimiga ijobiy taʼsir koʻrsatib, yalpi ichki mahsulotning oʻsishiga, bandlikning oshishiga va investitsiyalarni jalb qilishga yordam bermoqda. Bu borada olib borilgan ilmiy izlanishlar va nazariy qarashlar iqtisodiy barqarorlikning shakllanishi va rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Drayver sohalarning roli iqtisodiyotning turli tarmoqlarida koʻrib kelinmoqda. Masalan, Shirinov S.E. soliq salohiyatini aniqlashda soliq bazasi va meʼyorlariga urgʻu beradi. Uning fikriga koʻra, “hududiy soliq salohiyati — bu iqtisodiy faoliyat yurituvchi subyektlar tomonidan toʻlanishi mumkin boʻlgan soliqlar hajmini baholovchi koʻrsatkich boʻlib, u soliq bazasi va meʼyorlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi”. Bunga asoslanib aytadigan boʻlsak, norasmiy sektor, yashirin iqtisodiyot va soliq qochirish kabi omillar bu salohiyatni toʻliq roʻyobga chiqarishga toʻsqinlik qilishi mumkin [7].

Muzaffar Toshboyev oʻzining “Mintaqalarning ekologik-iqtisodiy xususiyatlari va ularning barqaror rivojlanish bilan bogʻliqligi” nomli maqolasida drayver sohalari, ayniqsa, sanoat va qishloq xoʻjaligi ekologik barqarorlikni saqlagan holda rivojlanishi zarurligini taʼkidlaydi. U iqtisodiy barqarorlikni taʼminlashda mintaqaviy yondashuv va resurslardan oqilona foydalanishni muhim deb hisoblaydi [8].

Abulqosimov X. va Qo'chqarov I. "Xufyona iqtisodiyotning rivojlanish sabablari va uning milliy iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri" mavzusidagi tadqiqotlarida yashirin iqtisodiyot iqtisodiy barqarorlik uchun xavf tug'dirishini ta'kidlashadi. Ularning fikricha, bu holat soliq tushumlarini kamaytirib, davlat xarajatlarini moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklaydi, bu esa makroiqtisodiy barqarorlikka bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi [9].

A.A. Mamatov, T.T. Jo'rayev va A.N. Erkayevlarning "Innovatsion iqtisodiyot" darsligida mualliflar iqtisodiy o'sishning zamonaviy omillari haqida fikr yuritib, drayver sohalarning raqamlashtirish, sun'iy intellekt, texnologik yangiliklar orqali rivojlanishini iqtisodiy barqarorlik uchun muhim deb hisoblaydilar. Ular innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, ilmiy salohiyatdan samarali foydalanish iqtisodiyotning sifat jihatdan yangilanishiga olib kelishini qayd etadilar [10].

M.A. Mamatovning "Iqtisodiy o'sish" nomli darsligida iqtisodiyotning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashda xom ashyo resurslariga tayanmasdan, qo'shimcha qiymat yaratuvchi tarmoqlarga e'tibor qaratish zarurligi ta'kidlangan. Bu asarda sanoatni modernizatsiya qilish, xizmatlar sektorini kengaytirish va raqobatbardosh eksportga yo'naltirish orqali iqtisodiy barqarorlikka erishish mumkinligi ko'rsatilgan [11].

Mamatov A.A., Abulqosimov H.P., Mamatov S.A., Saidgaziyeva S.Sh. tomonidan yozilgan "Iqtisodiy xavfsizlik" darsligida esa iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi, valyuta barqarorligi va moliyaviy mustahkamlik muhim rol o'ynashi qayd etiladi. Mualliflar O'zbekiston sharoitida drayver sohalari, xususan energetika, transport-logistika va qishloq xo'jaligini rivojlantirish orqali iqtisodiy xavfsizlikka erishish mumkinligini ta'kidlaydilar [12].

"O'zbekiston – 2030" strategiyasida ham iqtisodiy barqarorlikning asosiy omillari sifatida fiskal intizomni mustahkamlash, bank-moliya tizimini modernizatsiya qilish, drayver sohalarda investitsion muhitni yaxshilash kabi masalalarga alohida urg'u berilgan. Unda iqtisodiy islohotlarning ijtimoiy samaradorligini oshirish orqali aholining farovonligini ta'minlash maqsad qilingan [1].

Yuqoridagi adabiyotlar asosida aytish mumkinki, O'zbekiston iqtisodiyotida barqarorlikka erishish yo'lida drayver sohalarning rolini chuqur tahlil qilgan olimlar bu tarmoqlarning strategik ahamiyatga ega ekanini e'tirof etadilar. Ilmiy manbalar iqtisodiy barqarorlikning resursga emas, balki bilim va innovatsiyalarga asoslangan yondashuv orqali erishilishini ta'kidlamoqda.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda O'zbekistonda iqtisodiy barqarorlikka erishishda drayver sohalarning o'rni va istiqbollari tahlil qilinib, ularning iqtisodiyotga ta'siri baholandi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli va qiyosiy tahlil, statistik axborotlarni chuqur tahlil qilish, shuningdek, ilmiy-nazariy yondashuvlar asos qilib olindi. Asosiy maqsad — drayver tarmoqlarning milliy iqtisodiyot barqarorligiga qo'shayotgan hissasini aniqlash hamda ularning kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilashdan iborat bo'ldi.

Tadqiqot davomida O‘zbekiston iqtisodiyoti bo‘yicha mavjud statistik ko‘rsatkichlar — yalpi ichki mahsulot, sanoat va xizmatlar sektoridagi o‘shish sur‘atlari, bandlik va investitsiyalar hajmi tahlil qilindi. Ma’lumotlar rasmiy statistik byurolar, davlat idoralari va xalqaro tashkilotlarning ochiq manbalaridan olindi. Bu usul orqali tarmoqlarning amaldagi holati, ularning iqtisodiy barqarorlikdagi o‘rni baholandi.

Tizimli yondashuv asosida sohalar o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganildi, bu esa kompleks rivojlanishning ahamiyatini ko‘rsatdi. Qiyosiy tahlil orqali O‘zbekiston tajribasi boshqa davlatlar bilan solishtirilib, mavjud imkoniyatlar va zaif jihatlar aniqlandi. Shuningdek, amaliyotchi mutaxassislar fikrlari va sifatli tahlillar orqali real holatga yaqin xulosalar chiqarishga harakat qilindi. Natijada, drayver sohalarning barqarorlikka ta’siri ilmiy asoslangan holda baholanib, strategik takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida drayver sohalarning o‘rni yildan-yilga ortib bormoqda. So‘nggi yillarda mamlakatda sanoat, energetika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, agrosanoat majmuasi, logistika va xizmatlar sohasining modernizatsiyasi iqtisodiy o‘shishning asosiy omillaridan biriga aylangani kuzatilmoqda. Ushbu sohalar milliy iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, ichki bozorni to‘ldirish va eksport hajmini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda.

O‘zbekiston iqtisodiy barqarorligini baholashda asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar — yalpi ichki mahsulot (YaIM) o‘shish sur‘ati, inflyatsiya darajasi, ish bilan bandlik holati va zamonaviy sanoatning iqtisodiyotdagi ulushi muhim rol o‘ynaydi. Quyidagi jadvalda 2018–2024-yillar davomida ushbu ko‘rsatkichlar dinamikasi aks ettirilgan (1-jadval):


1-jadval.

2018-2024-yillar davomidagi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar [15]

| Ko‘rsatkichlar | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 |
|---------------------------|------|------|------|------|------|------|------|
| YaIM o‘shish sur‘ati (%) | 5.4 | 5.7 | 1.6 | 7.4 | 5.7 | 6.0 | 5.9 |
| Inflyatsiya darajasi (%) | 14.3 | 15.2 | 11.1 | 10.0 | 12.3 | 9.0 | 8.5 |
| Raqamli sanoat ulushi (%) | 2.1 | 2.4 | 2.9 | 3.6 | 4.2 | 5.0 | 6.2 |
| Ishsizlik darajasi (%) | 9.3 | 9.0 | 10.5 | 9.7 | 9.3 | 8.8 | 8.2 |

Jadvaldagi ma’lumotlarga asoslanib aytadigan bo‘lsak, ushbu yillarda YaIM o‘shish sur‘ati ijobiy tendensiyani ko‘rsatmoqda, ayniqsa 2021-yildagi sakrash iqtisodiy tiklanishni bildiradi. Inflyatsiya darajasi asta-sekin pasaymoqda, bu esa pul-kredit siyosati samaradorligidan dalolat beradi. Raqamli sanoat ulushi barqaror ravishda ortib bormoqda, bu O‘zbekiston iqtisodiyotining raqamli transformatsiyaga qadam qo‘yayotganidan dalolat beradi. Ishsizlik darajasi esa bosqichma-bosqich kamaymoqda, bu esa barqaror iqtisodiy o‘shish fonida ijtimoiy ta’sirni ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda sanoat korxonalari salmog‘i kundan kunga oshib bormoqda. 2025-yilning 1-mart holatiga ko‘ra, respublikada 56,8 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida quyidagicha taqsimlangan (1-rasm):




1-rasm. Sanoat korxonalari asosiy iqtisodiy faoliyat turlari ulushi [15]

Yuqorida berilgan rasmdagi ma'lumotlardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkin ki, ushbu sanoat korxonalari asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlil qilinganda, eng katta ulush oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga to'g'ri keladi. Bu yo'nalishda faoliyat yuritayotgan korxonalar soni 11,6 mingta bo'lib, bu jami sanoat korxonalarining 20,5 foizini tashkil etadi.

Shuningdek, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sohasida 8,0 mingta korxonalar faoliyat yuritmoqda, bu esa umumiy korxonalar sonining 14,1 foiziga teng. Kiyim ishlab chiqarish sohasida 5,7 mingta korxonalar mavjud bo'lib, ular sanoat korxonalarining 10,1 foizini tashkil etadi. Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar soni esa 4,6 mingtani tashkil qilib, umumiy sanoat subyektlarining 8,0 foiziga to'g'ri keladi. Mebel ishlab chiqarish yo'nalishida esa 3,9 mingta korxonalar mavjud bo'lib, ularning ulushi sanoat korxonalarining 6,9 foiziga tengdir.

Har bir davrda sanoat korxonalari faoliyatida turlicha o'zgarishlar kuzatiladi. Quyidagi rasmda 2021-yildan 2025-yil 1-mart holatigacha O'zbekiston Respublikasi bo'yicha faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni (ming dona) hamda shu yillarda yangidan tashkil etilgan korxonalar soni (ming dona) ko'rsatilgan (2-rasm):



2-rasm. Sanoat korxonolari soni, yillarning 1-mart holatiga nisbatan [15]

Ushbu rasmdan ko‘rinib turibdiki, 2021-2022 yillarda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonolari soni ortgan, ammo 2023-yildan boshlab sezilarli kamayish kuzatilgan. 2022-yilda eng yuqori daraja — 92 ming korxonalar qayd etilgan, biroq bu ko‘rsatkich 2025-yilga kelib 56,8 mingtaga tushgan. Yangi tashkil etilgan korxonalar soni ham yildan-yilga pasayib borgan: 2021-yilda 3,6 ming bo‘lgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib 1,5 mingtani tashkil etgan. Bu holat sanoat sohasida pasayish tendensiyasini va yangi biznes ochilishining sekinlashganini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib, mamlakatimizda iqtisodiy barqarorlikka erishishda drayver sohalarni rivojlantirish uchun salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Bunga yaqqol misol sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-sonli Farmonini olishimiz mumkin. Ushbu strategiyaning “Sanoatning drayver sohasini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to‘liq ishga solish” deb nomlangan maqsadida quyidagi ishlar rejalashtirilgan va ular bo‘yicha islohotlar amalga oshirib kelinmoqda [1]:

1. Sanoatda qo‘shilgan qiymat hajmini oshirish va yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratish. Bu yo‘nalishda sanoat tarmoqlarining modernizatsiyasi va diversifikatsiyasi ustida ishlar davom ettirilmoqda. Katta sanoat korxonalarini va yangi ishlab chiqarish zavodlari qurilishi orqali yuqori daromadli ish o‘rinlari yaratilmoqda. Shuningdek, yangi texnologiyalarni joriy etish va innovatsion loyihalarni amalga oshirish orqali sanoatning qo‘shilgan qiymati oshirilmoqda.

2. Yirik korxonalar tomonidan import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish. O‘zbekistonning sanoat korxonalarini, ayniqsa, mashinasozlik va to‘qimachilik tarmoqlarida import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishga e‘tibor qaratmoqda. Bunda mahsulotlarning sifatini oshirish va narxlarini

raqobatbardosh qilishga yo'naltirilgan investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Xususan, to'qimachilik va qurilish materiallari sanoatida ichki ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun yangi zavodlar ishga tushirilmoqda.

3. Hududiy korxonalar bilan kooperatsiya aloqalarini kengaytirish. Hududlararo sanoat aloqalarini rivojlantirish va kooperatsiya o'rnatish bo'yicha bir qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Mahalliy korxonalar o'rtasida ishlab chiqarish zanjirlarini uzluksiz qilish va umumiy ishlab chiqarish quvvatlarini yaxshilash maqsadida hududiy kooperatsiya kengaytirilmoqda. Bu esa mahalliy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

4. Har bir tumanda zamonaviy texnologik sanoat zonalarini tashkil etish. Turli hududlarda zamonaviy texnologik sanoat zonalarini tashkil etilmoqda. Bu zonalarda yuqori texnologiyalar asosida yangi ishlab chiqarish tarmoqlari va innovatsion korxonalar tashkil etilib, mahalliy resurslardan samarali foydalanishga erishilmoqda. Sanoat zonalarida yangi texnologiyalar va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

5. Respublikaning 60 ming kvadrat kilometr maydonida geologiya-qidiruv ishlarini amalga oshirish. Geologiya-qidiruv ishlari olib borilmoqda. Bu ishlar tabiiy resurslarni, shu jumladan foydali qazilmalarni aniqlash va ulardan samarali foydalanish uchun zarur ilmiy asosni yaratadi. Hududlar bo'yicha qidiruv ishlari davom etmoqda va yangi foydali qazilmalar kashf etilmoqda.

6. To'qimachilikda ip kalavani qayta ishlash darajasini 100 foizga yetkazish hamda yuqori sifatli matoga talabni qondirish uchun 400 ming tonna sun'iy va aralash tola ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish. To'qimachilik sanoatini rivojlantirish borasida ip kalavani qayta ishlash darajasi sezilarli darajada oshirildi. Sun'iy va aralash tola ishlab chiqarish hajmi ortmoqda, yangi ishlab chiqarish zavodlari ishga tushirilmoqda. Shuningdek, yuqori sifatli matolarni ishlab chiqarish uchun zarur resurslar va texnologiyalar joriy etilmoqda.

7. Qurilish materiallarini ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish va yangi turdagi energiya tejamkor materiallarni ishlab chiqarishni kengaytirish. Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish quvvatlari kengaytirilmoqda. Yangi turdagi energiya tejamkor materiallar ishlab chiqarish texnologiyalari ishlab chiqarilmoqda. Qurilish sohasidagi bu yangiliklar nafaqat ichki bozorda, balki eksportda ham o'sishga xizmat qilmoqda.

8. Farmatsevtika sohasida dori vositalariga ehtiyojni 70 foizga ichki ishlab chiqaruvchilar hisobiga qoplash. Farmatsevtika sohasida ichki ishlab chiqarishni kengaytirish borasida ishlar davom etmoqda. Dori vositalarining katta qismi ichki ishlab chiqaruvchilar tomonidan ta'minlanmoqda, bu esa mamlakatning dori vositalari bilan ta'minlashdagi mustaqilligini oshiradi.

9. Charm-poyabzal sanoatiga 30 dan ortiq nufuzli xorijiy brendlarni jalb qilish hisobiga qo'shilgan qiymatni 5 baravarga oshirish. Charm-poyabzal sanoatida xorijiy brendlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan. 30 dan ortiq nufuzli brendlarni jalb qilish orqali ishlab chiqarish hajmi va qo'shilgan qiymat oshirilmoqda. Bu esa sanoatning global bozorga integratsiyasini kuchaytiradi.

10. Mebel mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 3 baravarga ko'paytirish. Mebel sanoatida ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va hajmini uch baravarga oshirish bo'yicha ijobiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Bu sohada yangi texnologiyalar va dizaynlar joriy etilmoqda, natijada mebel ishlab chiqarish bo'yicha ichki talabni to'liq qondirish imkoniyati yaratilmoqda.

Ushbu rejalashtirilgan ishlar amalga oshirilgan va davom etayotganini ko'rsatmoqda. Bularning barchasi O'zbekistonning sanoat salohiyatini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekistonda iqtisodiy barqarorlikka erishishda drayver sohalarning istiqbollari masalasi hozirgi sharoitda strategik ahamiyatga ega bo'lib, u milliy iqtisodiyotning zamonaviy bosqichda izchil rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Tadqiqotlar va tahlillar asosida shuni aytish mumkinki, drayver sohalari sifatida sanoat, axborot texnologiyalari, logistika, kimyo va farmatsevtika, agrosanoat kompleksi, energetika kabi tarmoqlar iqtisodiy o'sishni jadallashtirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu sohalarning samarali faoliyat yuritishi yalpi ichki mahsulotning ortishiga, bandlik darajasining yaxshilanishiga va eksport salohiyatining kengayishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Biroq mavjud imkoniyatlarga qaramay, bu tarmoqlarning salohiyati to'liq ro'yobga chiqarilmagan. Infratuzilma yetishmovchiligi, investitsiya resurslarining cheklanganligi, malakali ishchi kuchining yetishmasligi va byurokratik to'siqlar kabi omillar rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda drayver sohalarning rolini kuchaytirish uchun aniq strategik yondashuv va tizimli choralar zarur.

Birinchidan, drayver tarmoqlarning innovatsion rivojlanishini qo'llab-quvvatlash maqsadida ilmiy-tadqiqot faoliyati va texnologik transforni kengaytirish lozim. Bu borada davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kuchaytirish, ilmiy muassasalar bilan sanoat korxonalarini o'rtasida uzviy aloqalarni yo'lga qo'yish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, infratuzilmani modernizatsiya qilish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkin. Ayniqsa, transport-logistika tizimini zamonaviylashtirish, energetika tarmog'ini diversifikatsiya qilish va raqamli infratuzilmani kengaytirish drayver sohalarning rivojlanishiga katta turtki beradi.

Uchinchidan, investitsion muhitni yaxshilash va xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay sharoit yaratish zarur. Bu borada soliq imtiyozlari, ma'muriy ruxsat olish tartiblarining soddalashtirilishi, huquqiy kafolatlarning oshirilishi muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, mahalliy investorlar uchun ham teng sharoitlar yaratish orqali ichki investitsion faollikni oshirish lozim.

To'rtinchidan, mehnat bozorini zamon talablariga mos ravishda qayta tashkil etish, kasbiy-ta'lim tizimini drayver sohalari ehtiyojiga moslashtirish muhimdir. Malakali kadrlarni tayyorlash, ularning bilim va ko'nikmalarini zamonaviy talablar darajasida rivojlantirish orqali sohalarning raqobatbardoshligini oshirish mumkin.

Beshinchidan, drayver tarmoqlar faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish, samarali monitoring va baholash tizimini yaratish lozim. Shu orqali davlat boshqaruvi institutlari salohiyatini kuchaytirish va maqsadli rivojlanish strategiyalarini amaliyotga tatbiq etish mumkin.

Umuman olganda, O'zbekistonda drayver sohalarning istiqbolini to'g'ri baholash va ularni izchil rivojlantirish orqali iqtisodiy barqarorlikka erishish imkoniyati mavjud. Yuqorida berilgan takliflar mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, aholi farovonligini oshirish va global raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Bu yo'lda strategik rejalashtirish, ilmiy yondashuv va samarali boshqaruv muhim ahamiyatga ega. Shu bois, drayver tarmoqlarni ustuvor yo'nalish sifatida belgilash va ularning faoliyatini kompleks tarzda rivojlantirish kelajakdagi iqtisodiy yutuqlarning poydevorini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabr PF-158-son ““O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-mart PF-41-son “Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalari faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-7420262>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-yanvar PQ-20-son “Elektrotexnika sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Qarori <https://lex.uz/uz/docs/-7335800>.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16-yanvar PF-6-son “To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-7369703>.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-avgust PQ-295-son “Hududlarda sanoat salohiyatini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Qarori <https://lex.uz/uz/docs/-7069813>.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-avgust PQ-286-son “Sanoat sohasida nufuzli xalqaro brendlar bilan hamkorlikni rivojlantirish va milliy brendlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori <https://lex.uz/docs/-7059241>.

7. Shirinov S.E. Soliq risklari va ularni boshqarish: o'quv qo'llanma. –T.: OOO “DIADEMA NUR SERVIS”, 2023. – 228 bet.

8. Toshboyev M. Mintaqalarning ekologik-iqtisodiy xususiyatlari va ularning barqaror rivojlanish bilan bog'liqligi // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024. №1.

9. Abulkosimov H., Qo'chqarov I.X. Xufyona iqtisodiyotning rivojlanishi sabablari va uning milliy iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri // “Yangi O'zbekiston iqtisodiyoti” jurnali 2-son 2025 yil, 11-14 b.

10. Mamatov A.A., Jo'rayev T.T., Erkayev A.N. Innovasion iqtisodiyot. Darslik. –T.: 2019, 456 bet.

11. Mamatov M.A. Iqtisodiy o‘shish. O‘quv qo‘llanma. -T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021 -384b.

12. Mamatov A.A., Abulqosimov H.P., Mamatov S.A., Saidgaziyeva S.Sh. Iqtisodiy xavfsizlik. Darslik. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2022.- 731 bet.

Khujamurodov, A. (2020). PECULIARITIES OF CORPORATE STRATEGY AND RISK PREVENTION IN JOINT STOCK COMPANIES. Архив научных исследований, 35(1). извлечено от <https://ejournal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/3456>

13. <http://www.lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi sayti

14. <https://www.imv.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti..

15. <http://www.stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi sayti.

16. <https://chamber.uz/> – O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi sayti.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**